# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RAVON NUTQ SHAKLLANISHI.

***Qo'ldasheva Ro'zixon Tojiboy qizi***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya**: Bu maqolada asosan makyabgacha yoshdagi bolalarning shakilanish davirlari unda kuzatiladigan birqabcha pisihalogik holaltlar kuzatilishi, va ularning lug'at boyligining shakilanish jarayonlari haqida.

**Kalit so'zlar**: nutq, davirlashtirish, so'z boylik, bog'langan nutq, bilish jarayonlari, oila, ta'lim tarbiya.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, us tuvor tadqiqotlarga yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining nechog'lik samarali ishlashi ma'lum darajada maktabgacha ta'lim si fatiga bog'liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakl lanib bo'ladi. Unga to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

Respublika mizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalar ni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafak kurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli ma salalar qamrab olingan.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllan tirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demak dir (A.A.Leont'ev).

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayon da nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sha roitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivoj lanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu

jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o’zaro bir- birini tushunishlarini ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Bolalar ravon nutqni rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblanadi maktabgacha yoshning nihoyasiga kelib bola kattalarga xos bo’lgan og’zaki nutqning asosiy shakilarini egallashi, ya’ni ravon nutqning ikki shakli – dialogik va manalogik nutqni egallab olishi shart. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchining rivojlanib kelayotgan nutqiga yaxshi etibor qaratishimiz va nutqiy faoliyatiniyaxshiashimiz kerak bo‘ladi. Bola nutqini shakilantirish va rivajnatirish masalasi pedagogikaning asosiy muammolaridan bo‘lib kelgan. Darhaqiqat, bolalar nutqining shakllanishida bir qancha omillar muhim va ularni tahlil qilish mazkur muammoning yechimiga nisbatan to’g’ri yondashuvni ta’minlaydi. Mazkur omillar sifatida oila va ta’lim muassasasidagi muhit, bolalarning ruhiy holati, imkoniyatlari, jismoniy salomotligi, faolligi va axloqiy va estetik sifatlarini keltirish mumkun.

Olib borilgan ilmiy ish va tahlil hamda tavsif etish boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalar nutqini takomillashtirishning ilmiy asoslari va tadqiq etish darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Nutq til bilan bog`liq hodisa bo‘lib, uning takomilli tildagi leksik birliklarning insonning tezkor xotirasida o’rin olish va uning nutqiy jarayonida tezkor qo’llay olish va uning ijtimoiy munosabatlar vosiyasiga hosil bo‘ladigan lingvo – psixologik ko‘nikmalar bo’lib unga tashqi va ichki omillar vostasida ta’sir qilishi mumkun. Nutqni egallashning asosiy bosqichi bo’lib boshlang’ich ta’lim davrida to’g’ri keladi va keyinchalik u muntazam rivojlanish xususiyatiga ega. Boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasalarida shu yo’nalishda olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar nutqiy faoliyatning yaxshilanishida rag’batni kuchaytirishga sabab bo’lmoqda. Nutqiy faoliyat nutqiy faoliyat bilan yahlitlik kasb etgan samaraliy muloqat jarayonini qaror topadi. Ularda verbal va noverbal muloqat shakllaridan o’rinli va unimli foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshirishda isbotlangan. O’zbek,marifat parvarlaridan biri Abdulla Avloniyning serqirra ijodiy faoliyatida ta’lim va tarbiya masalasi alohida o’rin egalaydi. Abdulla Avloniy o’z asarlarida ilim olish masalasini birinchi o’ringa qo’yadi. Avloniy ilmiy tarbiya jarayonida o’zlashtiradi, u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni noizdan, farqlash imkonini beradi deb hisoblaydi. O’qish va o’qitish usuliga isloh kiritish, yangi maktablarni tashkil qilishi, o’quvchilarga yangi bilimlar berilishi, zamonaviy bilimlarni egalashi sharq va g’arb tillarini o’rgatish kabi masalalarning ta’lim amaliyotiga kiritilishi Abdulla Avloniy nomi bilan bog’liq.

R.M. Qodirovaning tadqiqotlarida esa 5-6 yoshli bolalar nutqini Rus tilini o’qitish jarayonida rivojlantirishning omillri tadqiq etiladi. Hususan bolalarning nutqini rivojlanishining pedagogik- pisixalogik omillar bolalarga rus tilini diologik nutq vositasida o’qitishni uslubiyati, rus tilini o’qitish jarayonida bolalarga baynalminalik va

vatanparvarlik farzandlarni shakilantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tadqiqotchilar tominidan bolalar nutqini rivojlantirishning usul va uslublari bilan shug'ulaish kerak.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko’tarilgan ulug’vor vazifalardan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni so’g’lom rivojlangan shahs bo’lib shakillanishini taminlash, erta yoshlikdan o’qishga bo’lgan ishtiyoqini uyg’otib, tizimli o’qishga tayyorlab borishdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy maqsadi bolalarni maktabga o’qishga tayyorlash va ularni yangi muhitga moslashtirib borish judda muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muayyan muloqat shakilini yananada mustahkamlash va muayyan mavzular bo’yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig’ini ham berish mumkin. Bunday topshiriq ustida ishlash orqaliy ularda mustaqillik va ijodiy faoliyat va ijtimoiylashuvini rivojlantiradi .Bunday topshiriq ustida ishlash orqaliy ularda mustaqillik ijodiy faollik rivojlantiriladi. Masalan “Bizning oila”, “Bahor fasli”, “Yoz – o’tar soz “, “Qaldirg’och uchib keldi” va hakozo mavzularda hiukoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi. Hikoya qilish bolalarni jumlalarni Grammatik jihadan to’g’ri tuzish, tovushlarni, qo’shimchalarni to’g’ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tavsiya vositalaridan to’g’ri foydalana yordam berib boriladi. Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, ishlab chiqarish korhanalariga, dayo, cho’l, dalalarga sayohatlar asosida kun tartibimni tuzish judda muhim va mazmunliydir. Ertaklar bolalarning yosh xususiyatiga alohida e’tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ihcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

**1.** NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI.indd

**2.** BOLALAR NUTQINI O’STIRISHNING VOSITA VA USULLARI

**3.** 2023-12-18-04-44-32_a7e632db70c8bafbe71604d4a375cf85.pdf

**4.** Bolalar nutqini o'stirishning predmeti maqsadi va vazifalari.

**5.** R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog’och, 1998.

**6.** F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.